



*Azamat URALOV,*  
*Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi professori, DSc*  
*E-mail: azamaturalov06@gmail.com*

*Filologiya fanlari doktori, professor I. Ermatov taqrizi asosida*

### ALISHER NAVOIY IJODIDA GRAMMATIK MORFEMALARNING DIAKRON TARAQQIYOTI

Аннотация

Mazkur tadqiqot Alisher Navoiy asarlari tilidagi morfem birliklarning sintaktik, morfologik va tarixiy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda morfemalarning nafaqat so'z yasalishidagi, balki gap tarkibida grammatik munosabatlarni ifodalashdagi funksional roli yoritiladi. Navoiy ijodida qo'llangan grammatik morfemalarning variantlari, ularning fonetik almashuvi, qisqarishi, soddalashuvi hamda zamonaviy o'zbek adabiy tilidagi shakllar bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** Eski o'zbek adabiy tili, morfema, grammatik morfema, morfologiya, morfem variantlari, tarixiy taraqqiyot, fonetik almashuv, kelishik qo'shimchalari, diaxroniya, sinxroniya.

### ДИАХРОННОЕ РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ МОРФЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

Настоящее исследование посвящено анализу морфемных единиц в языке произведений Алишера Навои и их морфологическим, синтаксическим и историческим особенностям. В работе рассматривается функциональная роль морфем не только в процессе словообразования, но и в выражении грамматических отношений в структуре предложения. Проводится сравнительный анализ вариантов грамматических морфем, их фонетических чередований, сокращений и упрощений в языке Навои и в современном узбекском литературном языке.

**Ключевые слова:** Староузбекский литературный язык, морфема, грамматическая морфема, морфология, варианты морфем, историческое развитие, фонетическое чередование, падежные аффиксы, формы глагола, залог, время, аффиксы принадлежности, диахрония, синхрония.

### DIACHRONIC DEVELOPMENT OF GRAMMATICAL MORPHEMES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Annotation

This study is devoted to the analysis of morphemic units in the language of Alisher Navoi's works and their morphological, syntactic, and historical characteristics. The research examines the functional role of morphemes not only in word formation but also in expressing grammatical relations within sentence structure. A comparative analysis is conducted of grammatical morpheme variants, their phonetic alternations, reductions, and simplifications in Navoi's language and in the modern Uzbek literary language.

**Key words:** Old Uzbek literary language, morpheme, grammatical morpheme, morphology, morphemic variants, historical development, phonetic alternation, case suffixes, verb forms, voice, tense, possessive suffixes, diachrony, synchrony.

**Kirish.** Tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri — tilning tarkibiy birliklarini, xususan, morfemalarni o'rganishdan iboratdir. Morfema tilning eng kichik ma'noli birliklaridan biri bo'lib, so'z yasalishi, so'z tarkibini belgilash hamda ma'no ifodasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilining tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda adabiy asarlar, xususan, mumtoz adiblar ijodi beqiyos ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan Alisher Navoiy ijodi tilshunoslik fanida alohida va o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida boy leksik, morfemik va stilistik imkoniyatlarni yuksak darajada namoyon etgan. Uning asarlarida morfemalarning qo'llanishi nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tilning morfonologik hamda morfemik qonuniyatlarini tadqiq etish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Navoiy ijodini morfem birliklar nuqtayi nazaridan o'rganish orqali o'zbek tilining leksik va morfemik tizimi, so'z yasalish qoidalari hamda tarixiy taraqqiyot jarayonlari haqida yanada chuqurroq ilmiy tasavvur hosil qilish mumkin. Navoiy asarlaridagi morfem birliklarining xususiyatlari, ularning sintaktik va leksik vazifalari, shuningdek, zamonaviy o'zbek tilshunosligiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinar ekan, tadqiqot jarayonida adabiy manbalar, morfemik tahlil usullari hamda zamonaviy tilshunoslik nazariyalari metodologik asos sifatida qabul qilindi.

**Adabiyotlar tahlili.** Alisher Navoiy ijodida morfemlar nafaqat so'z hosil qilish vositasi sifatida, balki sintaktik va leksik tizimda ham muhim rol o'ynaydi. Sintaktik jihatdan morfemlar gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini belgilashda, ularning grammatik vazifalarini aniq ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, fe'l qo'shimchalari orqali fe'lning shaxs, vaqt va hollik kabi grammatik xususiyatlari aniqlanadi. Navoiy asarlarida "ketdum", "yozilmakda", "kelar erdi" kabi shakllar keng qo'llanilib, morfemlarning gap tarkibidagi vazifasi yaqqol ko'rinadi. Shu bilan birga, ot va sifatlarga birikadigan qo'shimchalar ham sintaktik munosabatlarni belgilaydi.

Shu o'rinda grammatik morfemalarning tarixiy ko'rinishlari haqida ham fikr bildirish lozim. Jumladan, Navoiy asarlari tilida morfem birliklarning tadarriy taraqqiyoti va o'zgarishi xususida quyidagilarni aytish mumkin. O'zbek tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Mir Alisher Navoiy haqida so'z borar ekan, "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" [2. 47], — Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning ushbu fikrlari alohida e'tiborga loyiq. Bu mutafakkirning asarlari bugungi kunga qadar sevib o'qiladi, ilmiy jihatdan tahlil etiladi, chog'ishtiriladi va milliy tilimizning muhim asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlari tilining

bugungi kundagi tadrijiy taraqqiyoti keng ko'lamda o'rganilmoqda. Uning asarlari tilidagi morfem birliklar va ularning o'zgarishlari xususida "Mukammal asarlar to'plami" [1] (20 tomlik, 14-tom)dan misollar keltiriladi.

Yuqoridagi kitobning 57-betida "xorxori", "asas", "ta'zib", "navmidlig'din", "muhiq", "diram", "etidoldin", "tahammul", "naz zoragar", "maraze", "rahere", "halohil", "sahih", "suubat", "nokor", "taallul", "bodiya", "zuloli", "homil", "sa'b" singari yigirmadan ortiq eskirgan (tarixiy-arxaik) so'zlarni uchratish mumkin. Bu so'zlar muayyan darajada arxaik yoki tarixiylashgan birliklar hisoblanadi. Mazkur so'zlarni anglashda izohli va tarixiy lug'atlarga murojaat qilish zarur bo'ladi. Navoiy asarlari tilida mustaqil so'zlar va ularga qo'shilayotgan qo'shimchalarning bugungi kunda to'liq amalda ekanligini ta'kidlash qiyin. Lekin shuni alohida qayd etish joizki, asosan morfemalarda tarixiy taraqqiyot tufayli ayrim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Asos – leksemalarning ayrimlari ham turli fonetik va morfologik o'zgarishlarga uchragan.

**Natija va muhokama.** O'sha davr tilida ham tovush almashishi hodisasi mavjud bo'lgan: "arig'i", "zarnigorlig'idin" kabi so'zlar tarkibidagi "q" va "k" tovushlarining "g" tovushiga almashuvi kuzatiladi. Ot so'z turkumiga xos egalik qo'shimchalarida ham o'ziga xos tarixiy o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bugungi kundagi "ko'ngil" so'zining "ko'nglumni" (191-bet), "ko'nglungga" (49-bet), "nutqung" (160-bet) variantlarida tovush tushishi hodisasi bilan bir qatorda egalik qo'shimchalarining "-um", "-ung" ko'rinishlari ham kuzatiladi. "Vaqfung" (49-bet) so'zida ham ushbu holatni kuzatish mumkin. Shu bilan bir qatorda, bugungi tilimizda mavjud bo'lgan egalik qo'shimchalarining ham parallel tarzda qo'llanilganining guvohi bo'lamiz: "shuuring", "namozi", "ichiga", "nidosi" (49-bet).

Kelishik qo'shimchalarining ham turli ko'rinishlarda (variantlarda) qo'llanganini kuzatish mumkin. Chiqish kelishigining "-dan" shakli eski o'zbek adabiy tilida "-din" shakli bilan ifodalangan. "Munsha ot" asarining 191-betida "atofdin", "alardin", "ishidin", "bundin", "yodidin", "qatoridin", 193-betida "duodin", "zulmatidin", "mazmunidin", "falakdin" kabi so'zlarda hamda "Mahbub ul-qulub" asarida "xayolidin" (48-bet), "shiddatidin", "nidosidin", "huridin", "uyotdin" (49-bet) kabi birliklar tarkibida chiqish kelishigi "-din" varianti orqali ifodalangan. Asarning boshqa qismlarida ham "-dan" shaklini uchratish qiyin. Bundan aniq bo'ladiki, eski o'zbek adabiy tilida chiqish kelishigi shakli "-din" variantida mavjud bo'lgan va tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi shakliga o'tgan. Mazkur holatni til tarixiga oid tadqiqotlar asosida yanada chuqurroq izohlash mumkin.

Tushum kelishigi asosan ikki variantda ishlatiladi. Bugungi kunda she'riyat talabi bilan qisqargan "-n" shakli hamda adabiy tildagi to'liq "-ni" shakli teng darajada qo'llanilgan: "takallumin" (57-bet), "tutmog'onni" (87-bet). Jo'nalish kelishigining ishlatilishida to'rt variantlilik, ya'ni to'rtta morf – "-g'a" (190-betda qaysig'a, holig'a, 191-betda devoniyarg'a, bandag'a, 192-betda o'tig'a, jarohatig'a, 193-betda qotillarig'a, tang'a, jong'a, 48-betda yo'lg'a, ishqig'a, husnig'a), "-ka" (49-betda sulukka), "-qa" (87-betda valene'matqa, 160-betda tufroqqa), "-ga" (49-betda ko'ngliga, o'ziga, ishiga) orqali ifodalangan. Biroq bu variantlar orasida eng faoli "-g'a" shakli hisoblanadi. "-g'a" morfemasining Navoiy asarlarida juda ko'p uchrashi va hozirgi adabiy tildagi "-ga" morfemasining faol qo'llanishi shundan dalolat beradiki, bir vaqtlar faol bo'lgan "-g'a" morfemi keyinchalik nafaol morfega aylangan. Eski o'zbek adabiy tilida nisbatan nafaol bo'lgan "-ga" shakli esa bugungi kunda o'ta faol morfema sifatida mustahkamlangan. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek tilidagi "-g'a" shakli bugungi "-ga" shakliga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Qaratqich kelishigi

shakli esa "-ing" va "-ning" variantlarida qo'llanganini kuzatamiz: tabiating komi (49-bet), tilning ofati.

Ismlardagi kesimlik shakllari (bog'lamalalar) "-man", "-san", "-dir" kabi ko'rinishlarda emas, balki eski o'zbek adabiy tilida "-men", "-sen", "-dur", "-tur" shakllarida ishlatilgan. "Ishtur" (189-bet), "bordur", "ekandur", "vojibdur", "zabtidur" (190-bet), "bermakdur" (192-bet), "xushvaqtidur" (193-bet), "nidosidur", "kechmakdur" (49-bet), "ulfatdur" (50-bet), "qilgaysen", "degaysen" (136-bet), "yururmen" (194-bet) kabi misollar buning yaqqol dalilidir. Misollardan ko'rinish turibdiki, eski o'zbek adabiy tilidagi ushbu shakllar hozirgi adabiy tildagi muqobillaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Fe'llar tizimi haqida so'z borganda, A. Hojiyev ta'kidlaganidek, eski o'zbek adabiy tilidagi ko'plab fe'l shakllari bugungi ko'rinishidan farq qiladi. Bu farqlar fe'l zamonlarida ham, nisbat shakllarida ham, vazifa shakllarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy asarlarini mutolaa qilish jarayonida bu holatni aniq kuzatish mumkin.

Eski o'zbek adabiy tilida "bo'lgay" fe'l shakli tarixiy taraqqiyot natijasida "bo'ladi" shakliga almashgan. "-di" o'tgan zamon shaklining "-ti" varianti bilan qo'llangan holatlar ham keng tarqalgan: "tushti", "etti" (49-bet). Kelasi zamon qo'shimchasi hozirgi "-adi" shakli o'rnida Navoiy davrida "-gay" shaklida qo'llanilgan: "yetkurgaylar" (259-bet). Bu misolda fe'l nisbatining ham tarixiy variantini kuzatish mumkin. "Yetkurgaylar" (259-bet) shaklidagi "-kur" varianti bugungi kunda "-kaz" ("gaz") shakliga mos keladi.

Fe'lning vazifa shakllarida ham tarixiy o'zgarishlar kuzatiladi. Xususan, "-ib" ravishdosh shaklining "-ub" ko'rinishi eski o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan. Bugungi kunda esa singarmonizm qonunining zaiflashuvi natijasida ushbu qo'shimcha asosan "-ib" shaklida qo'llanilmoqda. Aslida, Navoiy asarlarida "oshub" (49-bet), "kelturub" (191-bet), "yetkurub" (193-bet) kabi shakllar uchraydi.

Sifatdosh shakli "-gan" esa eski o'zbek adabiy tilida "-g'on", "-qon" (ayrim hollarda "-ur") shakllarida qo'llanganligini kuzatamiz. Tarixiy taraqqiyot jarayonida "g" va "q" tovushlarining "g" tovushiga, "o" unlisining esa "a" unlisiga almashgani kuzatiladi. Morfema tarkibining asosiy qismi fonetik jihatdan o'zgargan bo'lsa-da, uning grammatik mohiyati saqlanib qolgan. Mazkur shakllar "qochqon" (49-bet), "qilg'on" (191-bet), "ozg'onlar", "bo'lg'on" (259-bet), "o'qur kishi" (190-bet) ko'rinishlarida uchraydi. Ushbu birliklar bugungi o'zbek adabiy tilida "qochgan", "qilgan", "ozgan", "bo'lgan", "o'qigan kishi" shakllarida qo'llaniladi. Bu holatdan anglashiladiki, so'z tarkibidagi morfem birliklar diaxron va sinxron nuqtayi nazardan yondashilganda turli o'zgarishlarga uchragan.

Harakat nomi shaklining "-ur" (190-betda "o'qurda"), "-mak" (49-betda "kechmakdur"), "-moq" (50-betda "turmoq") ko'rinishlari amalda bo'lgan. Bugungi kunda esa asosan "-ish" va "-moq" variantlari saqlanib qolgan. "-mak" shakli batamom "-moq" shakliga, "-ur" shakli esa "-ish" shakliga almashgan. Qiziq tomoni shundaki, fe'lning vazifa shakllari orasida omonimiya hodisasi Navoiy davrida ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik esa bu morfemalar mustaqil shakllarga ajralib, ko'rinish jihatidan o'zgargan. "O'qurda" (o'qishda) va "o'qur kishi" (o'qigan kishi) misollari ushbu holatni tasdiqlaydi. Misollardan ko'rinish turibdiki, "-ur" fe'l shakllari tarkibida omonim qo'shimcha sifatida namoyon bo'lgan.

Fe'l nisbatlarida ham shakllar bugungi holatga nisbatan ancha rang-barang bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida asosan "-in", "-il" (ko'rindi, ko'rildi) shakllari faol qo'llaniladi. Navoiy asarlari tilida esa mazkur shakllarning turli morflari mavjud bo'lgan. Bu holatdan shuni aniqlash mumkinki, eski o'zbek adabiy tilida fe'l nisbat shakllarining

turi ko'p bo'lgan. Masalan, hozirgi "-in" shakli o'rnida "-un" (192-betda "ko'rundi"), "-il" (189-, 190-, 191-, 259-betlarda "qililsa"), "-ul" (191-betda "bo'lulmasa") shakllari qo'llangan. Mazkur shakllarga mos morfalar bugungi adabiy tilda bitta shakl orqali ifodalanadigan bo'lib qolgan.

Ko'rsatish olmoshlari masalasiga ham qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Leksemalarning tarixiy taraqqiyoti davrlar o'tishi bilan muntazam ravishda o'zgarib boradi. Tilning ijtimoiy tabiati aynan shu jarayonda namoyon bo'ladi. Navoiy asarlari tilida ko'rsatish olmoshlarining tarixiy shakllari aniq seziladi. Aslida, hozirgi ko'rsatish olmoshlarining tarixiy ko'rinishlari morfem va leksem birliklarning umumiy rivojlanish qonuniyatlariga mos keladi. "U" olmoshining "a" (49-betda "aning", 49–103-betlarda "anga", 57-betda "ani", 191-betda "alardin", 190-betda "alar", "andoq") hamda "ul" (190-betda "ulcha", 49-betda "ul") variantlari, "bu" olmoshining "mu" varianti, "shu" olmoshining "ul" varianti tarixan mavjud bo'lgan. Hozirgi "bu" va "shu" olmoshlarining tarixiy shakllari sifatida "mu" va "ul" variantlari keng iste'molda bo'lgan: "mundin" (191-bet), "mundagi" (190, 193-betlar), "iltimosim ulkim" (191-bet).

Eski o'zbek adabiy tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha qariyb besh asrlik davr o'tganligi sababli so'z tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Birinchi holatda tovushlarning almashuvi kuzatiladi. Masalan, "bila" (191-bet) shakli "bilan" ko'rinishiga, "qilinur" (190-bet) shakli "qilinadi" holatiga, "ko'ngul" (192–193-betlar) shakli "ko'ngil" ko'rinishiga, "qo'yub" shakli "qo'yib" holatiga, "yetkursalar" (191-bet) shakli "yetkarsalar" ko'rinishiga kelgan. Shu bilan birga, "ortuq" (ortiq), "topshurilsa" (topshirilsa), "yetkurdi" (yetkazdi), "yetkurib" (yetkazib), "o'tkarib" (o'tkazib) kabi so'zlarda ham turli fonetik o'zgarishlar sodir bo'lgan. "Yafrog'lari", "yovushti" (49-bet) so'zlari tarkibida esa ikki tovush o'zgarishini kuzatish mumkin. Bu holatda asosan "p" tovushining "f" tovushi bilan almashganligi aniqlanadi. "Sovug'" (49-bet) so'zi "sovuq", "orig'ay" (50-bet) so'zi esa "arig'ay" shakliga mos keladi. "O'qusa", "uzotilar", "yig'och" (57-bet) so'zlari tarkibida ham bugungi tilga xos bo'lmagan fonetik xususiyatlar mavjud.

Ikkinchi holatda ortiqchalik, ya'ni murakkablashuv hodisasi kuzatiladi. "-kim" shakli orqali murakkablashgan birliklar hozirgi adabiy tilda deyarli qo'llanilmaydi. "Bu mahaldakim", "qilsakim" (190-bet), "bitilsakim", "ulkim", "bo'lsakim", "qililsakim", "har qaysi ishkim" (191-bet) kabi shakllar bunga misol bo'la oladi.

Uchinchi holatda esa qisqarish yoki asosning o'zgarishi hodisasi kuzatiladi. So'z tarkibi qanchalik murakkablashmasin, u tabiiy ravishda qisqarishga intiladi. "Aytur erdi", "tutub erdi" (49-bet) shakllari bugungi adabiy tilda "aytardi", "tutardi" ko'rinishiga kelib qolgan. Ikki so'zning qo'shilishi natijasida ularning tarkibida fonetik va morfologik o'zgarishlar yuz berib, yagona so'z shakli hosil bo'lgan. Bugungi kunda bunday birliklar tub so'z sifatida qabul qilinadi. Navoiy davrida esa mazkur shakllar ikki so'z orqali ifodalangan. "Edikim" (48-bet) so'zining qisqarishi natijasida oxiridagi "m" tovushining tushib qolishi "ediki" shaklining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. "Sirrin" (57-bet) so'zidagi bitta "r" tovushining tushib qolishi ham ushbu jarayonni tasdiqlaydi. "Andoq" (59-bet) so'zining bugungi adabiy tildagi muqobili esa "ozroq" shaklidir.

**Xulosa.** Umuman olganda, eski o'zbek adabiy tilining yuksak namunasi hisoblangan Navoiy ijodi tili bugungi o'zbek adabiy tili uchun muayyan darajada mustahkam asos vazifasini bajaradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan ayrim lisoniy o'zgarishlarni Navoiy asarlari materiali asosida yaqqol kuzatish mumkin. Aslini olganda, mazkur tadqiqot ko'lami nihoyatda keng bo'lganligi sababli unda masalaning faqat ayrim jihatlarigagina to'xtalib o'tildi. Navoiy asarlari tilida qo'llanilgan morfem birliklar hozirgi o'zbek tilshunosligida turli darajadagi strukturaviy va funksional o'zgarishlarga uchragan. Tadqiqotchilar so'z tarkibini tahlil qilish jarayonida, morfem birliklar haqida ilmiy mulohaza yuritishda, ularning tarixiy ildizlari hamda zarurat tug'ilganda kelib chiqishini Navoiy davri adabiy manbalari bilan qiyosiy jihatdan o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Mazkur tarixiy taraqqiyot jarayoni bugungi kun til holatini ilmiy asosda talqin etishda muhim tayanch vazifasini bajaradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. ("Mahub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya") 20 tomlik, 14-tom. – T.: 1967.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008.
3. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Реформатский А.А. Агглютинация и фузия / Морфологическая типология и проблема классификации языков. –М. 1967.
5. Рахимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
6. Uralov A. O'zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik. Fil. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Samarqand, 2024.